



**“YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR
RIVOJLANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA
YECHIMLARI” MAVZUSIDA
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ ПО ТЕМЕ
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ»**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE ON THE TOPIC
"ACTUAL PROBLEMS AND SOLUTIONS OF GREEN
ECONOMY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT"**

15-16 APREL



BUXORO – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
BUKHARA STATE TECHNICAL UNIVERSITY**

**«YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISHNING
DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI» MAVZUSIDA
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ ПО ТЕМЕ «АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И
ПУТИ РЕШЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ЗЕЛЕННОЙ
ЭКОНОМИКИ»**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE ON THE TOPIC «ACTUAL PROBLEMS AND
SOLUTIONS OF GREEN ECONOMY AND SUSTAINABLE
DEVELOPMENT»**

BUXORO – 2025

Tashkiliy qo'mita
Организационный комитет
Organising committee

1. dots. S. G'. Siddiqova - BMTI rektori, rais
2. prof. A. B. Nizamov - IlvalB prorektor, rais muovini
3. dots. Sh. A. Raxmatov - Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, mas'ul kotib

Tashkiliy qo'mita a'zolari:
Члены организационного комитета
Members of the organizing committee

prof. A.Ch. Boboyev, dots.A.X. Hojiev, S.B. Saidov, prof. Sh.N. Xayitov, dots. G.Dj. Xasanova, dots. Sh.M. Avezova, dots. S.Yu. Norova, dots. Sh.B. Ochilov, dots. D.H. Jumayeva, dots. S.N. Yuldasheva, dots. F.Z. Toshev, dots. D.D. Raximova, dots. N.R. Xalliyeva, J.K. Musayeva.

Tahrir hay'ati:
Редакционная коллегия:
Editorial team:

prof. A.Ch. Boboyev, prof V.P. Kuznetsov, dots.S.Yu. Norova, dots. Sh.M. Avezova, prof. Ye.N. Kamishanchenko, dots. Yu.L. Rastopchina, dots. F.Z.Toshev, dots. D.D. Raximova, F.F. Narzulloyeva, J.K. Musayeva, Z.B. Negmatullayeva, Sh.Sh. Po'lotov.

To'plamda 2025 yil 15-16 aprel kunlari Buxoro davlat texnika universitetida o'tkazilgan "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari kiritilgan. Mazkur to'plamda o'zbek va xorijiy olimlarning Yashil iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni rivojlantirishning dolzarb muammolariga bag'ishlangan ilmiy ishlari taqdim etilgan. To'plam Buxoro davlat texnika universiteti Ilmiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

В сборник включены материалы Международной научно практической конференции «Актуальные проблемы и пути решения устойчивого развития и зеленой экономики», проведенной 15-16 апреля 2025 года в Бухарском государственном техническом университете. В данном сборнике представлены научные работы узбекских и зарубежных ученых, посвященные актуальным проблемам развития социально-экономических систем в условиях зеленой экономики. Сборник рекомендован к печати Научным Советом Бухарского государственного технического университета.

The collection includes materials from the International Scientific and Practical Conference "Actual problems and solutions of green economy and sustainable development", held on April 15-16, 2025 at the Bukhara State Technical University. This collection presents scientific works of Uzbek and foreign scientists devoted to current problems of the development of socio-economic systems in the context of green economy. The collection was recommended for publication by the Scientific Council of the Bukhara State Technical University.

“Durdona” 2025

1. United Nations Development Programme (UNDP). (2019). *Digital Finance for Sustainable Development: Opportunities and Pitfalls*. New York: UNDP Publications.
2. World Economic Forum (WEF). (2021). *Shaping the Future of Financial and Monetary Systems*. Cologny/Geneva: WEF.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). "FinTech ekotizimini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar". *Markaziy bank rasmiy veb-sayti*: <https://cbu.uz/> (03.05.2023-y. holatiga ko'ra).
4. PwC Global FinTech Survey. (2020). *Redrawing the Lines: FinTech's Growing Influence on Financial Services*. London: PwC.
5. Moody's Analytics. (2021). *Cyber Risk and Digital Transformation in Banking*. New York: Moody's Analytics.

RAQAMLI INFRATUZILMA VA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH ORQALI BUXORO VILOYATIDA "AQLLI TURIZM"NI SHAKLLANTIRISH

*Jafarova Hilola Xalimovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti, Buxoro davlat universiteti,
Turizm va mehmonxona xo'jaligi o'qituvchisi
h.x.jafarova@buxdu.uz*

Buxoro viloyati O'zbekistonning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri bo'lib, boy tarixiy-madaniy merosi, durdona arxitektura yodgorliklari, xalq hunarmandchiligi va an'analari bilan nafaqat mintaqaviy, balki jahon turizm bozorida ham alohida mavqega ega. So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar, viza rejimining soddalashtirilishi, yangi xalqaro aviayo'nalishlarning ochilishi va mehmonxona biznesini rag'batlantirish kabi qator chora-tadbirlar viloyatga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Biroq jahon miqyosida turizm industriyasi tobora raqamli transformatsiyaga yuz tutar ekan, Buxoro viloyatida ham zamonaviy raqamli infratuzilmani joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash va "aqlli turizm" (smart tourism) tushunchasiga mos keluvchi islohotlarni tezlashtirish dolzarb hisoblanadi. Quyida shu yo'nalishda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan ilmiy-amaliy masalalar yoritib beriladi.

"Aqlli turizm" – turizm industriyasi va raqamli texnologiyalarning sinergetik uyg'unligiga asoslangan konsepsiya bo'lib, unda mehmonlarga ko'rsatiladigan xizmatlar asosan onlayn va mobil platformalar orqali boshqariladi, turistlarga zarur ma'lumotlar real vaqt rejimida taqdim etiladi, shuningdek, sayyohlik obyektlarini ziyorat qilish jarayonlari raqamli vositalar bilan qulaylashtiriladi. Masalan, onlayn bronlash, elektron yo'riqnoma, mobil ilovada sayohat rejalashtirish, QR-kod orqali tarixiy obyektlar haqida ma'lumot olish, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida mustaqil ravishda ekskursiya qilish kabi xizmatlar "aqlli turizm"ning asosiy bo'laklaridandir.

Buxoro – UNESCOning Butunjahon meros ro'yxatiga kiritilgan bir nechta obyektlarga ega shahar. Viloyatdagi madrasa, masjid, maqbara, minora va boshqa tarixiy inshootlar xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etishda yetakchi o'rin tutadi. Shuningdek, xalq hunarmandchiligi, gastronomik turizm, zaranglik va qadimiy bozorlar jahon miqyosidagi turistlar e'tiborini tortishi mumkin. Ammo zamonaviy turistlar faqat an'anaviy turizm bilan kifoyalanmasdan, o'z vaqtini tejash, qulay va xavfsiz sayohat qilish, elektron axborot platformalari orqali shaxsiy tajribalar bilan o'rtoqlashish, madaniy meros obyektlari haqida keng ma'lumot olishni istashadi. Shu bois "aqlli turizm"ni joriy etish Buxoroga xorijiy sayyohlarni jalb qilish qobiliyatini oshiradi, turizm mavsumiyligidan kelib chiqadigan muammolarni qisman yumshatadi, xodimlar malakasini yuqori darajaga olib chiqish hamda xizmat ko'rsatish sohasining raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Buxoro viloyatida “aqlli turizm”ni shakllantirish uchun avvalo mustahkam raqamli infratuzilma zarur. Raqamli infratuzilma o‘z ichiga tezkor internet tarmog‘i, mobil aloqa qamrovi, elektron to‘lov tizimlari, onlayn rezervatsiya platformalari, interaktiv axborot stendlari kabi elementlarni oladi. Xususan:

1. Internet qamrovi va Wi-Fi nuqtalari - turistlar o‘zlarining dasturilamal bo‘lgan mobil ilovalari, ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor ma‘lumot almashishni istashadi. Shuning uchun Buxorodagi asosiy sayyohlik zonalar, madaniy va tarixiy obyektlar atrofi, mehmonxonalar hamda restoranlar hududida bepul yoki arzon tariflarda Wi-Fi tarmog‘i mavjud bo‘lishi lozim.

2. Mobil ilovalar va veb-saytlar - viloyatdagi turistik obyektlar, transport, mehmonxona, restoran va hunarmandchilik bozorlariga oid interaktiv ma‘lumotlarni jamlagan rasmiy ilovalar yoki veb-saytlar taqdim etish zarur. Mazkur platformalarda onlayn xarita, GPS yo‘riqnoma, elektron chipta, onlayn to‘lov kabi xizmatlar joriy etilishi muhim.

3. QR-kodli ekskursiyalar - ko‘plab xorijiy davlatlar tajribasidan ma‘lumki, madaniy meros obyektlari, muzeylar, tarixiy binolarda QR-kod o‘rnatish orqali turistlar smartfonlari bilan kodni skanerdan o‘tkazib, o‘z tilida qisqa matn, audio yoki video ko‘rinishida kerakli ma‘lumotni olishi mumkin. Bunday yondashuv Buxorodagi tarixiy obyektlar bo‘yicha ekskursiyalarga qulaylik yaratadi.

4. Virtual texnologiyalar, ba‘zi inshootlarda restavratsiya holati tufayli kirish cheklangan bo‘lishi mumkin yoki tarixiy manzaralarni avvalgi holatida namoyish etish xohlovi mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday holda, VR, AR texnologiyalar bilan yaratilgan 3D ekskursiyalar turistlarga tarixiy davr muhitini yaxshiroq his qilishga yordam beradi.

5. Elektron to‘lov tizimlari - turistlar nafaqat bank kartalari, balki xalqaro to‘lov tizimlari (PayPal, Apple Pay, Google Pay) yoki mahalliy raqamli hamyonlar (Humo, Uzcard, Click, PayMe) orqali onlayn to‘lovni amalga oshirishni istashadi. Sayyohlik punktlarida bevosita elektron terminallar ham bo‘lishi muhim.

Raqamli infratuzilmani yaratish va uni uzluksiz takomillashtirish qimmat loyiha hisoblanib, davlat mablag‘lari bilan cheklanib qolishi qiyin kechadi. Shu bois Buxoro viloyatida xususiy sektor, startaplar, xalqaro investorlar hamda davlat-xususiy sherikchiligi (PPP) ko‘rinishidagi hamkorliklar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan:

1. Xususiy investitsiyalar va startap ekotizimi- mahalliy IT kompaniyalar va startaplar Buxoroda turizm sohasiga ixtisoslashgan mobil ilovalar, onlayn rezervatsiya tizimlari, 3D ekskursiya dasturlari yaratishi mumkin. Davlat ular uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan ruxsatnomalar, investitsiya grantlari ajratishi raqamli texnologiyalarni jalb qilish jarayonini tezlashtiradi.

2. Kattaroq kompaniyalar bilan hamkorlik - dunyodagi yirik turizm, IT va texnologiya kompaniyalari (masalan, Booking, TripAdvisor, Airbnb, Cisco, Huawei) bilan hamkorlikni kuchaytirish, Buxoroda birgalikda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, marketing kampaniyalarini o‘tkazish, texnik ko‘mak ko‘rsatish borasida sheriklik bitimlarini imzolash mumkin.

3. Davlat xususiy sherikchiligi asosida Buxoroda raqamli axborot markazlari barpo etish, turizm obyektlarida “aqlli” video kuzatuv, Wi-Fi tarmog‘i, xavfsizlik va navbatlarni boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish, “aqlli transport” (masalan, elektrobus, elektroskuterlar ijara xizmati)ni joriy etish mumkin.

4. Raqamli turizm borasida Buxoroda xalqaro darajadagi tadbirlar, startap akseleratorlari, IT-forumlar, turizm bo‘yicha investitsion sammitlar tashkil etish orqali potensial investorlar va mahalliy tadbirkorlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, tajriba almashish va sheriklik bitimlariga kelish imkoniyati oshadi.

Buxoro viloyatida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va aqlli turizm konsepiyasini joriy qilish bir qator ijtimoiy va iqtisodiy afzalliklar keltiradi:

1. Raqamli xizmatlar hisobiga turistlar oqimi ortadi, mehmonxona, transport, ovqatlanish, hunarmandchilik va boshqa ko‘plab sohalarda iqtisodiy faoliyat jonlanadi. Xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi takroriy tashriflar va ijobiy tavsiyalarni rag‘batlantiradi.

2. IT xizmatlari, onlayn marketing, logistika, sayyohlik agentliklari, mehmonxonalar, restoranlar kabilarda yangi bo'sh ish o'rinlari paydo bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar va ayollar uchun bandlik imkoniyatlari kengayadi. Hududiy iqtisodiyotda diversifikatsiya ortib, xizmatlar sohasining ulushi kengayadi.

3. "Aqlli turizm" sharoitida tarixiy obyektlarga ko'p sonli sayyohlar oqimi boshqariladi, virtual ekskursiyalar orqali nozik inshootlarga jismoniy zararni kamaytirish mumkin. Ekoturizm, ijtimoiy mas'ul turizm kabi yo'nalishlar ham rivojlanadi. Shuningdek, raqamli arxivlash, 3D modellash, madaniy meros obyektlarini raqamli shaklda saqlash kabilar ham muhim.

4. Agarda Buxoro "aqlli turizm" bo'yicha mintaqadagi yetakchilardan biriga aylansa, xalqaro sayyohlik portallarida, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy reklama paydo bo'ladi. Turistlar zamonaviy va ishonchli raqamli xizmatlardan foydalangani uchun o'z ijobiy tajribasini boshqalar bilan o'rtoqlashadi, bu esa turizm brendini kuchaytiradi.

Turizm sohasida raqamli texnologiyalar joriy etilishi bilan birga kiberrisklar ham ortadi. Shuning uchun Buxoroda aqlli turizm platformalaridan foydalanish jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Turistlar tomonidan onlayn to'lovlar amalga oshirilishi, shaxsiy ma'lumotlar (pasport, kontakt) taqdim etilishi, elektron bronlash ma'lumotlari kiberhujumlar nishoniga aylanishi mumkin. Davlat darajasida raqamli ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligi mustahkamlash, zamonaviy shifrlash protokollaridan foydalangan holda platformalar yaratish zarur.

2. Mahalliy IT kompaniyalar, xususi auditorlar, davlat organlari bilan hamkorlikda Buxorodagi raqamli turizm obyektlarida muntazam "penetration test"lar, veb-saytlar va mobil ilovalarni texnik auditdan o'tkazish, tezkorlik bilan kamchiliklarni bartaraf qilish kabi choralar ko'rilishi lozim.

3. Turoperatorlar, mehmonxona xodimlari, aeroport, temir yo'l stansiyalari, muzey va madaniy maskanlarda ishlovchi xodimlar kiberhujumlarga qarshi minimal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Ma'lumot tarqatish, parol va loginlarni saqlash madaniyatini yo'lga qo'yish hamda zudlik bilan navbatchi mutaxassislariga murojaat qilish tartibini joriy etish talab etiladi.

Buxoro viloyati o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, zamonaviy infratuzilmasi va hamkorlik salohiyati bilan "aqlli turizm" joriy etish uchun poydevor yaratish imkoniga ega. Raqamli infratuzilmani mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash va aqlli xizmat ko'rsatish modellari orqali Buxoro nafaqat sayyohlar oqimini oshirishi, balki turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini yuksaltirishi mumkin. Bu jarayonda davlat, xususi sektor, xalqaro hamkorlar, ilmiy va ta'lim muassasalari birlashgan holda aniq strategik qadamlar qo'yishi, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi, kadrlar tayyorlash, ekologik barqarorlikni ham inobatga olishi zarur.

"Aqlli turizm"– bu sohaga zamonaviy raqamli yechimlarni keng qamrovda joriy qilishni nazarda tutadigan, turistlarga eng qulay sharoitlarni yaratish bilan birga, madaniy merosni asrab-avaylash va viloyat aholisining farovonligini oshirishga xizmat qiladigan konsepsiyadir. Buxoro viloyati kabi tarixiy shaharga mazkur modelni tatbiq etish jarayoni istiqbolda nafaqat ichki turizm jozibadorligini oshiradi, balki xalqaro maydonda mintaqaning raqamli va barqaror turizmdagi yetakchi o'rinini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, PQ-5611-son, 5-yanvar.

2. Turizm va Madaniy meros vazirligi. (2021). "2021–2025-yillarda turizm industriyasini rivojlantirish konsepsiyasi". tourism.gov.uz (01.05.2023-y. holatiga ko'ra).

3. UNWTO (World Tourism Organization). (2020). UNWTO Tourism Tech Adventure: Boosting Start-Ups in Tourism. Madrid: UNWTO.

4. Ministry of Innovative Development of Uzbekistan. (2022). "National Strategy on Digital Transformation 2022–2026". Toshkent: MID Press.

5. Mazhidova, Z. (2022). “Raqamli texnologiyalarning turizm xizmatlari samaradorligiga ta’siri: O‘zbekiston tajribasi”. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 1(8), 112–123.
6. Uzakov, X. & Nabiev, S. (2023). “Buxoro viloyatida aqlli turizmni rivojlantirishda investitsion muhiting ahamiyati”. *Ilm va Amaliyot jurnali*, 3(14), 45–56.
7. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

TASHQI OMILLARNING DAVLAT QARZLARIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Djurayev Paxlavonjon Usarovich
mustaqil izlanuvchi, Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti djurayev_paxlavonjon@mail.ru

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalalari bugungi kunda davlat qarzi tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Davlat qarzining holati mamlakatning investitsiya salohiyatiga, xalqaro maydondagi mavqeiga, aholining farovonlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi hamda ko‘p jihatdan davlatning moliyaviy barqarorlik darajasini belgilaydi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, pandemiya, geosiyosiy muammolar va global foiz stavkalarining o‘shishi natijasida hatto rivojlangan mamlakatlarda ham davlat qarziga xizmat ko‘rsatish xarajatlari oshib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa tashqi moliyaviy manbalarga bog‘liqlik darajasi oshayotgan bo‘lib, bunday vaziyat davlatlarga tashqi moliyaviy sharoitlarning keskin o‘zgarishlari sharoitida tezkor qarorlar qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun, davlat qarziga ta’sir etuvchi tashqi omillarni tahlil qilish orqali iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil kompleks yondashuvni talab etadi va u global foiz stavkalari, valyuta risklarining kuchayishi, xalqaro savdodagi o‘zgarishlar va xalqaro moliyaviy institutlar strategiyasining davlat qarziga ta’siri kabi omillarni qamrab olishi zarur.

Davlat qarzlariga ta’sir etuvchi tashqi omillarni baholash quyidagilarga asoslanadi:

- xalqaro moliya bozorlaridagi o‘zgarishlar monitoringi;
- global foiz stavkalari dinamikasi;
- xalqaro savdo sharoitlari va xomashyo narxlari;
- valyuta kurslaridagi tebranishlar;
- geosiyosiy risk va global iqtisodiy sikllar

Ushbu omillarni tizimli ravishda baholash, davlat qarzining salbiy oqibatlarini kamaytirish, qarz tuzilmasini optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat qarzining holati, hajmi va sifati mamlakatning moliyaviy barqarorligi, fiskal siyosati va xalqaro kredit reytinglariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tashqi iqtisodiy omillar esa, o‘z navbatida, davlat qarzining tarkibiy va dinamik xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval.

Tashqi omillarning davlat qarziga ta’sir darajasi va oqibatlari¹³¹

Tashqi omil	Davlat qarziga ta’siri	Asosiy oqibatlar
Global foiz stavkalari (LIBOR, Fed)	Qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini oshiradi	Budjet defitsiti oshishi orqali foiz to‘lovlari uchun ajratmalar miqdori ortadi
Xomashyo narxlari (neft, gaz, metallar)	Eksportdan olinadigan daromadlarga ta’sir qiladi	Eksportga bog‘liq mamlakatlar qarz olishga ko‘proq ehtiyoj sezadi
Valyuta kurslari (AQSh dollari indeksi)	Tashqi qarzning real qiymati oshadi	Qarzni qaytarish murakkablashadi, valyuta zaxiralari kamayadi

¹³¹ Муаллиф томонидан тузилди

РОЛЬ УНИВЕРСИТЕТОВ В РАЗРАБОТКЕ И ВНЕДРЕНИИ ПРИНЦИПОВ БЕРЕЖЛИВОГО ПРОИЗВОДСТВА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ Кузнецова Светлана Николаевна, Мольков Егор Николаевич,	337
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ПРИМЕНЕНИЯ ЦИКЛИЧЕСКОЙ ЭКОНОМИКИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ Кузнецов Виктор Павлович, Назарова Екатерина Николаевна,.....	339
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЭКОЛОГИЗАЦИЮ ЭКОНОМИКИ Шустова Ксения Вадимовна, Назарова Екатерина Николаевна,.....	342
ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СТАНДАРТОВ НА РАЗВИТИЕ БЕРЕЖЛИВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ КОРПОРАЦИЯХ Шобонова Любовь Юрьевна, Горев Никита Алексеевич, Фролов Юрий Сергеевич,	344
АДАПТАЦИЯ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ К НОВЫМ УСЛОВИЯМ: ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И СТРАТЕГИИ ИМПОРТОЗАМЕЩЕНИЯ Романова Юлия Викторовна	347
BLOCKCHAIN FOR A GREEN ECONOMY: ENHANCING FOOD TRACEABILITY AND SUSTAINABILITY IN UZBEKISTAN Professor J Scott Christianson, Maria Maschio, Azamat Sulaymonov,	349
IJTIMOII-YQTISODIY ADOLAT – BARQAROR RIVOJLANISH KAFOLATI Alimov Nasimjon Hoshimovich	352
“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHDA EKOLOGIK SOLIQLARNI SHAKLLANTIRISH To ‘rayev Shavkat Shuhratovich, Toshev Fazliddin Zayniddinovich,.....	355
СОВРЕМЕННЫЕ ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ Расулова Нигора Нематовна	359
РОЛЬ ЗЕЛЕННЫХ ФИНАНСОВ В ИСЛАМСКОЙ ЭКОНОМИКЕ Расулова Нигора Нематовна, Абдуллаев Ақобир Афзалжонович	361

“YASHIL” IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK SOLIQLARNING AHAMIYATI VA ZARURIYATI <i>Toshev Fazliddin Zayniddinovich</i>	362
MAMLAKAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDA BANK TIZIMINING SAMARALI ISHLASH MEKANIZMLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. <i>Toshev F.Z., Orifova M.</i>	365
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING SAMARADORLIGINI TA’MINLASH <i>Toshev F.Z., Tog’ayev J.</i>	367
BUXGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILNING BIZNESDAGI ROLI <i>Musayeva J.K., M. U. Xasanov</i>	369
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MUHITINI SHAKLLANTIRISH <i>Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Ahadov Anvar Matyoqub o‘g‘li</i>	371
BARQAROR RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY SEKTORNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI <i>Po‘latov.Sh.Sh., Jalilova.D.E.</i>	373
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИИ <i>Ш.Ж.Примова, А.Ш.Хайитова</i>	375
IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHDA MOLIYAVIY RESURSLARNING O‘RNI <i>Berdiyev G‘olib Ne‘matovich</i>	377
RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA SHAKLLARI <i>Raximova Dilnoza Davronovna</i>	379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY SEKTORNI RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI <i>Tag‘oyev Alisher Narziqulovich, Saidov Oybek Ortikbekovich</i>	383
RAQAMLI IQTISODIYOTNING KAMBAG‘ALLIKKA TA’SIRI: DIGITAL BANKLAR <i>Xayitova Iroda Naimovna, Davlatova Madinabegim Muzaffar qizi</i>	385
MINTAQAVIY RESURLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI <i>Toshpo‘lotov Doniyor Xudoyor o‘g‘li</i>	388
JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHI VA MINTAQAVIY IQTISODIYOTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING NAZARIY ASOSLARI <i>Xayitova Feruza Baxrom qizi</i>	391
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ЦИФРОВИЗАЦИИ <i>А.Ш.Хайитова, Ш.Т.Хакбердиева</i>	393
RAQAMLI IQTISODIYOT – RIVOJLANISH TENDESIYALARI <i>Bozorova M.S., Asrorova Madinaxon Rustam qizi</i> ,	396
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI <i>G.M.Qudratova, Shukrilloev Nurbek Jondulloyevich</i>	398
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O‘RNI <i>Naimova N.A Ashurov Mirzohid Saidovich</i>	399
SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH <i>Sodiqova N.T, Islomova Mashhura Mahmud qizi</i>	400
O‘ZBEKISTONDA LOMBARD TASHKILOTLARI VA ULARNI TASHKIL ETISH <i>Xalilov Bahromjon Bahodirovich, Axtamova Muzayyam Akbar qizi</i>	402
ZAMONAVIY IQTISODIY DAVRDA JAHONDA “YASHIL IQTISODIYOT” HAMDA “YASHIL MOLIYA” TIZIMINING O‘RNI <i>Muxammedov Tolibjon Tohir o‘g‘li, Raxmonqulova Nafisa Olimjonovna</i>	404
ПРОБЛЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРОЕКТОВ В ЗЕЛЕНУЮ ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА <i>Гафарова Д.Т.,</i>	406
YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR <i>Toshov M.H</i>	

<i>Abbosova Amira Abbos qizi</i>	408
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI <i>Dadabayeva Mamlakat Uralovna</i>	410
MOLIYAVIY SEKTORNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGI ELEKTRON PLATFORMASI BILAN INTEGRATSIYA QILISH MASALALARI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	412
BANKNING RAQAMLI MA'LUMOTLAR BAZASI ORQALI MIJOZLARNING KREDIT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH <i>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</i>	415
RAQAMLI XIZMATLAR: O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA INNOVATSIYALARNING JAMIYATGA TA'SIRI <i>Jumayev Bahodir Raxmatullayevich</i>	418
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTI YANGI BOSQICHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA BU YO'NALISHIDA BUXORO VILOYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TADBIRLAR <i>Hakkulov Eldar Xudoyberdievich</i>	422
BUXORO VILOYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISH <i>Hakkulov Eldar Xudoyberdievich</i>	424
BARQAROR RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY SEKTORDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI <i>Jafarova Hilola Xalimovna</i>	426
RAQAMLI INFRATUZILMA VA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH ORQALI BUXORO VILOYATIDA "AQLLI TURIZM"NI SHAKLLANTIRISH <i>Jafarova Hilola Xalimovna</i>	428
TASHQI OMILLARNING DAVLAT QARZLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH <i>Djurayev Paxlavonjon Usarovich</i>	431
IQTISODIYOTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Vayskulov Ramazon Alisher o'gli</i>	433
ЎЗБЕКИСТОНДА МОЛИЯВИЙ ИНКЛЮЗИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАНИНГ АҲАМИЯТИ ВА УНИ МИЛЛИЙ ШАРТ-ШАРОИТЛАРДА ҚўЛЛАШ <i>Икромов Козим Тавакалович</i>	435
BARQAROR RIVOJLANISHDA MOLIYAVIY SEKTORNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHNING DOLZARB MASALALARI <i>Hojiyev Tal'at Toshpo'lotovich</i>	437

IV-SHO'BA. YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALAR VA ILM FANNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

TA'LIM VA INNOVATSIYA: KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA <i>Xayitov Sherbek Naimovich, Amrullayev Dadaxon Nurmat o'g'li</i>	444
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNING INNOVATSION RIVOJLANISHI <i>Xasanova Gulruh Djumanazarovna</i>	446
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI <i>Xasanova Gulruh Djumanazarovna</i>	448
YASHIL IQTISODIYOT DOIRASIDA HUDUDLARNING INNOVATSION FAOLIGINI OSHIRISH ORQALI QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI <i>Ochilov Sherali Barotovich, Akramova Obida Qosimovna</i>	450
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA OZIQ-OVQAT SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MASALALARI <i>Ochilov Sherali Barotovich, Akramova Obida Qosimovna</i>	453
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURLIGI, QIYINCHILIKLAR VA ULARNING YECHIMLARI <i>Ochilov Sherali Barotovich, Akramova Obida Qosimovna</i> .	456
IQLIM O'ZGARISHIGA QARSHI KURASHISHDA IKKI MUHIM YONDASHUV ADAPTATSIYA VA MITIGATSIYA YONDASHUVLARINING ILMIY JIHATLARINI O'RGANISH <i>Rahmatov Shuxrat Axatovich</i>	458